



## THE COURAGE OF SURKHANDARYA REGION SOLDIERS ON THE FRONT LINES AND IN THE HOME FRONT DURING THE SECOND WORLD WAR

***Kamoliddin Tojinorovich Toshov***

*Associate Professor of Termez University of Economics and Service, PhD*

[kamoliddin\\_toshov@tues.uz](mailto:kamoliddin_toshov@tues.uz)

*Termez, Uzbekistan*

***Sabrina Abdirashidovna Khuramova***

*Student, Termez University of Economics and Service*

[xurramova.sabrina@gmail.com](mailto:xurramova.sabrina@gmail.com)

*Termez, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

---

**Key words:** Second World War, Surkhandarya region, Termez, 213th Rifle Division, 92nd Separate Brigade, front line, soldiers, military operations, historical memory, patriotism.

**Received:** 20.05.26

**Accepted:** 21.05.26

**Published:** 22.05.26

**Abstract:** This article provides a scientific analysis of the activities of soldiers from Surkhandarya region during the Second World War on the front lines and in the home front, their contribution to the victory over fascism, and the historical significance of their service. Based on archival documents and historical sources, the study highlights the activities of the 213th Rifle Division, the 92nd Separate National Brigade, and the 1st Guards Airborne Division. It also examines the participation of Surkhandarya soldiers in major military operations, the scale of losses, and labor efforts in the home front. The results of the study show that the courage of the population of Surkhandarya region during the war holds an important place in national history and memory policy.

---

## IKKINCHI JAHON URUSHIDA SURXONDARYO VILOYATI JANGCHILARINING FRONT VA FRONT ORTI FAOLIYATIDAGI JASORATI

***Kamoliddin Tojinorovich Toshov***

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti,*

*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

[kamoliddin\\_toshov@tues.uz](mailto:kamoliddin_toshov@tues.uz)

*Termiz, O'zbekiston*

**Sabrina Abdirashidovna Xurramova**

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi*

[xurramova.sabrina@gmail.com](mailto:xurramova.sabrina@gmail.com)

*Termiz, O'zbekiston*

---

### MAQOLA HAQIDA

---

**Kalit so'zlar:** Ikkinchi jahon urushi, Surxondaryo, Termiz, 213-o'qchi diviziya, milliy brigada, front, jangchilar, tarixiy xotira, vatanparvarlik.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxondaryo viloyati jangchilarining front va front ortidagi faoliyati, ularning fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi hamda tarixiy xizmatlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda arxiv hujjatlari va tarixiy manbalar asosida 213-o'qchi diviziya, 92-alohida milliy brigada va 1-gvardiyachi havo desant diviziyasi faoliyati yoritilgan. Shuningdek, surxondaryolik jangchilarning yirik harbiy operatsiyalardagi ishtiroki, yo'qotishlar ko'lami hamda front ortidagi mehnat jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyati aholisining urush yillarida ko'rsatgan jasorati milliy tarix va xotira siyosatida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

---

### МУЖЕСТВО ВОЕННОСЛУЖАЩИХ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ НА ФРОНТЕ И В ТЫЛУ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

**Камолiddин Тожинорович Тошов**

*Доцент Термезского университета экономики и сервиса, PhD*

[kamoliddin\\_toshov@tues.uz](mailto:kamoliddin_toshov@tues.uz)

*Термез, Узбекистан*

**Сабрина Абдрашидовна Хуррамова**

*Студентка Термезского университета экономики и сервиса*

[xurramova.sabrina@gmail.com](mailto:xurramova.sabrina@gmail.com)

*Термез, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** Вторая мировая война, Сурхандарьинская область, Термез, 213-я стрелковая дивизия, 92-я отдельная бригада, фронт, военнослужащие, военные операции, историческая память, патриотизм.

**Аннотация:** В данной статье научно анализируется деятельность военнослужащих Сурхандарьинской области на фронте и в тылу в годы Второй мировой войны, их вклад в победу над фашизмом, а также историческое значение их службы. На основе архивных документов и исторических источников

освещается деятельность 213-й стрелковой дивизии, 92-й отдельной национальной бригады и 1-й гвардейской воздушно-десантной дивизии. Также рассматривается участие сурхандарьинских воинов в крупных военных операциях, масштабы потерь и трудовая деятельность в тылу. Результаты исследования показывают, что мужество населения Сурхандарьинской области в годы войны занимает важное место в национальной истории и политике памяти.

---

**Kirish.** Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng yirik, eng qonli va halokatli harbiy to'qnashuvlardan biri bo'lib, u butun dunyo mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. 1941-yil 22-iyunda fashistlar Germaniyasining Sovet Ittifoqiga hujumi bilan boshlangan ushbu urush keng ko'lamlı harbiy harakatlarga aylanib, millionlab insonlarning taqdirini o'zgartirdi. Urushning dastlabki bosqichlarida dushman qo'shinlarining tez ilgariashi natijasida katta hududlar bosib olindi va bu holat SSSR tarkibidagi barcha xalqlarni, jumladan O'zbekiston aholisini ham umummilliy safarbarlikka jalb qildi.

**Adabiyotlar sharhi.** Mavzuni yoritishda tarix fanining tarixiylik xolislik, muammoli xronologik, ketma-ketlik, qiyosiylik, taqqoslash, oddiydan murakkabga tomon izchillik sengretika metodlaridan umumiy foydalanildi hamda unda Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxon vohasi ahlining frontda va front ortidagi jasoratlari tarixiy manbalar asosida ko'rsatiladi. Maqolada ko'tarilgan masala tarixnavislik fanida nisbatan kam o'rganilgan soha sanaladi.

Surxondaryoliklarning urush yillarida frontda va front ortidagi jasoratlari to'g'risida ko'pgina asarlar yaratildi. Biroq Sh.Karimovning "G'alabaga qo'shilgan hissa" asarida o'zbek xalqining frontga qo'shgan hissasi yoritilgan bo'lsa, S.Tursunov va T.Pardaevlarning "Ikkinchi jahon urushi yillarida Sherobodliklarning jasorati", o'sha mualliflarning "Unitilmas jasorat", S.Tursunov, O.Soatov, X.Jo'raevlarning "Xotira barhayot-qadrlash mangu", O.Soatov, S.Tursunov va K.Toshovlarning "Frontdan kelgan xatlar" kitoblarida Surxon vohasi ahliga jigargo'shalaridan kelgan xatlarida vatanparvarlik tuyg'ulari va ko'rsatgan jasurligi yoritilgan bo'lsa, O.Soatov, S.Tursunov va K.Toshovlarning "Vatan yo'lida fidoiy jonlar" asarida vatanimiz yo'lida o'z jonini fido etgan jafokash xalqimizning metin irodali vakillari haqida bayon etilgan.

Ikkinchi jahon urushi va unda O'zbekiston, jumladan Surxondaryo viloyati aholisining ishtiroki masalasi tarixshunoslikda nisbatan yaxshi o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Mazkur mavzuga doir adabiyotlarni shartli ravishda bir necha guruhga ajratish mumkin: umumiy tarixiy asarlar, arxiv materiallari, xotira-esdalik adabiyotlari hamda hududiy tadqiqotlar.

Surxondaryo viloyati tarixiga bag'ishlangan mahalliy tadqiqotlarda esa viloyatdan frontga ketgan jangchilar, ularning harbiy qismlardagi xizmati va qaysi jangovar operatsiyalarda ishtirok etgani haqida ma'lumotlar uchraydi[7]. Shu bilan birga, Termiz shahrida tashkil etilgan 213-o'qchi diviziyasi, 92-alohida brigada va boshqa harbiy tuzilmalar faoliyati haqida ayrim manbalarda qisman ma'lumotlar keltirilgan.

Xotira-esdalik adabiyotlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, urush qatnashchilari va ularning avlodlari tomonidan yozilgan asarlarda frontdagi hayot, jang maydonlaridagi qahramonliklar, og'ir yo'qotishlar va inson taqdiri bilan bog'liq voqeliklar yorqin aks etgan[8]. Bu turdagi manbalar jangchilarning shaxsiy tajribasini o'rganishda muhim o'rin tutadi.

Arxiv materiallari esa ilmiy tadqiqot uchun eng ishonchli manba hisoblanadi. Surxondaryo viloyati davlat arxivi hujjatlarida frontga chaqirilgan aholi ro'yxatlari, harbiy qismlarga yuborilgan jangchilar, yo'qotishlar statistikasi hamda front ortidagi mehnat faoliyati haqida aniq ma'lumotlar saqlanadi[9].

Shu bilan birga, so'nggi yillarda mustaqillik sharoitida urush qatnashchilari xotirasini abadiylashtirishga bag'ishlangan "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan yangi tadqiqotlar yaratilmoqda. Ularda urush qurbonlari xotirasini saqlash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavzuga oid adabiyotlar yetarlicha bo'lsa-da, Surxondaryo viloyati jangchilarining alohida harbiy qismlar tarkibidagi faoliyati, ularning konkret jangovar operatsiyalardagi ishtiroki va shaxsiy qahramonliklari tizimli ravishda chuqur o'rganilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ikkinchi jahon urushida Surxondaryo viloyati jangchilarining front va front orti faoliyatidagi jasoratini yoritib berishga qaratilgan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, tarixiy tahlil, qiyosiy tahlil kabi metodlaridan foydalanildi.

**Muhokama va natijalar.** O'zbekiston, xususan Surxondaryo viloyati urush yillarida front uchun inson resurslarini yetkazib beruvchi hudud sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1941-yilda O'zbekiston aholisi jami 6,5 million kishini tashkil etgan, shundan urushda O'zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi ishtirok etib, shundan 538 ming o'zbekistonlik fuqarolar xolok bo'ldilar. Urush davrida 158 ming hamyurtlarimiz bedarak ketgan bo'lsa, sovet tuzimi siyosati tufayli boshqa o'lkalarga quloq va surgun qilingan 59 mingdan ortiq yurtdoshlarimiz urushda boshqa o'lkalar hisobidan qatnashgan. Surxondaryoliklardan 82274 kishi

frontga jo‘natilgan bo‘lsa, shundan 22500 nafari qaytib kelmadi. Bu holat ayrim qishloqlarda demografik yo‘qotishlarning juda og‘ir kechganini ko‘rsatadi[1].

SSSR ga hujum qilgan fashistlarning qo‘qqisdan havo hujumi uyushtirishi mumkin bo‘lgan hududlar qatoriga Termiz shahri ham kiritildi. Chunki bu davrda Eronda beqaror vaziyat hukmron bo‘lib, dushman samolyotlarining Eron yoki Afg‘oniston orqali hujum uyushtirish xavfi ham yo‘q emas edi. Buni inobatga olgan Termiz shahar ijroiya komiteti “havo hujumi bo‘yicha Termiz shahar territoriyasini xavfli zona deb e‘lon qilish haqida” farmoyish chiqardi. Havo hujumi bo‘lgan taqdirda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar va chora-tadbirlar belgilab olindi.

Harbiy xizmatga chaqirilgan vohadoshlarimizning bir qismi 1941-yilning 28-avgustida 58-o‘qchi korpusi 68-tog‘-o‘qchi diviziyasining 139-artilleriya polki tarkibida Eronga yuborildi. Negaki, AQSh va Buyuk Britaniya hukumatlari Sovet Ittifoqiga jo‘natayotgan harbiy yordamning bir qismi aynan Eron orqali o‘tkazilayotgan edi. Surxondaryolik jangchilar Tehron konferensiyasi ishining tinch o‘tishida ham o‘z hissalarini qo‘shishdi. Ularning Eronda bo‘lishi to 1945-yilning yoziga qadar davom etdi. Urushning ilk oylaridan mehnatkashlarning iltimosiga binoan O‘zbekistonda milliy qo‘shilmalar tuzishga alohida e‘tibor qaratildi. Jumladan, 1942-yil yanvarida Termiz shahrida 92-alohida o‘qchi milliy brigadasi tashkil qilindi[2].

Termiz shahrida surxondaryoliklardan 213-o‘qchi diviziya shakllantirildi. 1941-yil 1-noyabridan diviziya O‘rta Osiyo harbiy okrugiga bo‘ysundirildi. Uning joylashish joyi Termiz shahri harbiy qo‘rg‘oni bo‘ldi. Shu erdan frontga jo‘natildi va 1943-yil 1-martidan Oliy Bosh Qo‘mondonlik Stavkasining zahirasiga kiritildi. Ushbu qism dastlab Kursk ostonalarida o‘zini ko‘rsatdi. Jangchilarimiz Shebakino va Belgorod shaharlarining janubida qattiq turib jang qildilar, birinchilardan bo‘lib Dneprdan kechib o‘tishdi, Moldaviyani ozod etishdi, Yassi-Kishinyov operatsiyasi va Visla-Oder operatsiyalarida qatnashib, Ruminiya, Polsha va Chexoslovakiyani ozod qilishda ishtirok etishdi. Dneprni kechib o‘tishda ko‘rsatgan jasoratlari uchun 213-diviziyaning quyidagi zobitlari-termizlik mayor Lyubimov Aleksey Ilich, diviziya shtabi boshlig‘i podpolkovnik Baranov Nikolay Andreyevich, 739-o‘qchi polkining komandiri, podpolkovnik Vashkevich Aleksandr Aleksandrovich va 585-o‘qchi polkining komandiri Zaykovskiy Nikolay Vasilevichlar Sovet hukumatining yuksak unvoni bo‘lgan Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘lishdi. Janglarda ko‘rsatgan qahramonliklari uchun faxriy 213-Novoukrain diviziyasi nomini oldi[3]. Ushbu qismlar tarkibida xizmat qilgan surxondaryolik jangchilar o‘z jasorati va matonati bilan frontda yuqori natijalarga erishdilar.

Surxondaryoliklar nafaqat piyoda qo‘shinlar tarkibida, balki razvedka, artilleriya, sanitariya xizmati va partizanlik harakatlarida ham faol ishtirok etdilar. Jasur razvedkachilar dushman ortiga

kirib muhim ma'lumotlar to'plashgan, sanitarlar esa yuzlab yaradorlarni qutqarib qolgan. Partizanlik harakatlari esa dushmanga orqa tomondan zarba berish orqali urush natijasiga ta'sir ko'rsatgan. Urush yillarida frontda ko'rsatgan jasoratlari uchun o'zbekistonliklardan 120000 jangchi hukumat orden va medallari bilan taqdirlandi. Ulardan 280 kishi Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi, shundan 69 nafari o'zbek edi. 32 kishi "Shuhrat" ordenining har uchala darajasi bilan taqdirlandi. Surxondaryoliklardan olti nafari-yefreytor I.M.Kolodiy, mayor A.I.Lyubimov, Kichik leytenant M.F.Murashkin, polkovnik S.F.Protsenko, gvardiyachi polkovnik S.I.Chernishev, A.B.Shamkaevlar Sovet Ittifoqi Qahramoni, uch nafari esa "Shuhrat" ordenining to'la nishondori bo'ldilar. 3769 kishi turli xil orden va medallar bilan mukofotlandi[5].

Urush yillarida bir qator surxondaryoliklar konslagerlarda asirlik azobini boshdan kechirgan bo'lsa-da, ularning bir qismi Yevropa Qarshilik harakatida qatnashib, fashizmga qarshi kurashni davom ettirgan[6]. Shu bilan birga, front ortidagi aholi ham katta fidokorlik ko'rsatib, armiyani zarur oziq-ovqat va ta'minot bilan ta'minlashda ishtirok etgan.

Shu jihatdan, Surxondaryo viloyati jangchilarining Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki nafaqat harbiy tarixning muhim qismi, balki milliy xotira, vatanparvarlik va fidoyilik namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Ularning jasorati va tarixiy xizmati yosh avlodni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ilmiy-tarbiyaviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxondaryo viloyati aholisining front va front ortidagi ishtiroki arxiv materiallari, tarixiy adabiyotlar va xotira manbalari asosida kompleks tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyati urush davrida nafaqat inson resurslarini yetkazib beruvchi hudud, balki muhim harbiy kadrlar manbai sifatida ham strategik ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, Surxondaryo viloyatidan 80 mingdan ortiq inson frontga safarbar etilgan bo'lib, ularning sezilarli qismi urush maydonlarida halok bo'lgan yoki bedarak yo'qolgan. Bu holat ayrim qishloqlar misolida yanada yaqqol ko'rinadi: masalan, Qizilolma, Xo'janqon va Zarabog' qishloqlaridan yuzlab insonlar frontga ketib, ularning katta qismi qaytib kelmagan. Bu esa urushning demografik va ijtimoiy oqibatlari juda og'ir bo'lganini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, surxondaryolik jangchilar asosan frontning eng og'ir va hal qiluvchi yo'nalishlarida xizmat qilganlar. Ular Stalingrad, Kursk, Dnepr, Yassi-Kishinyov, Budapesht va Berlin kabi strategik ahamiyatga ega operatsiyalarda ishtirok etib, fashizm ustidan g'alabaga katta hissa qo'shganlar. Ayniqsa, Dnepr daryosini kechib o'tish, Kursk yoyi janglari va Berlin operatsiyasida ularning ishtiroki yuqori baholangan.

Milliy harbiy qismlar faoliyatini o'rganish natijasida Termiz shahrida tashkil etilgan 213-o'qchi diviziyasi, 92-alohida milliy brigada va 1-gvardiyachi havo desanti diviziyasi urushning muhim jangovar tuzilmalari bo'lgani aniqlandi. Ushbu qismlar tarkibida xizmat qilgan jangchilar yuqori intizom, jangovar tayyorgarlik va jasorat namoyon etganlar. Xususan, 213-o'qchi diviziyasi Yassi-Kishinyov va Visla-Oder operatsiyalarida faol ishtirok etib, bir qator shaharlarni ozod qilishda hal qiluvchi rol o'ynagan.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, surxondaryoliklar nafaqat piyoda qo'shinlar tarkibida, balki razvedka, artilleriya va sanitariya xizmatlarida ham faol ishtirok etganlar. Razvedkachilar dushman ortiga kirib muhim ma'lumotlar to'plagan bo'lsa, sanitarlar og'ir sharoitlarda yuzlab yaradorlarni qutqarib qolgan. Shu bilan birga, partizanlik harakatlarida ishtirok etgan jangchilar dushman kommunikatsiyalariga jiddiy zarar yetkazganlar.

Ayrim jangchilarning taqdiri tahlili shuni ko'rsatdiki, ular orasida Yevropadagi Qarshilik harakatiga qo'shilib, fashizmga qarshi kurashni davom ettirganlar ham bo'lgan. Bu holat surxondaryolik jangchilarning baynalmilal qahramonlik ko'lamini yanada kengaytirgan.

Shu bilan birga, urushdan keyingi demografik holat tahlili Surxondaryo viloyati aholisi katta yo'qotishlarga duch kelganini ko'rsatadi. Ko'plab oilalar bir necha farzandlarini yo'qotgan, ayrim qishloqlarda esa erkaklar soni keskin kamaygan. Bu holat keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ham ta'sir ko'rsatgan.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, Surxondaryo viloyati jangchilarining Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki nafaqat harbiy g'alabaga qo'shilgan hissa, balki milliy tarix va xotiraning muhim qismi hisoblanadi. Ularning jasorati va fidokorona xizmati bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik, sadoqat va burchga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa.** Ikkinchi jahon urushi yillarida surxondaryolik jangchilar frontlarda beqiyos jasorat va matonat namoyon etdilar. Ular turli harbiy operatsiyalarda faol ishtirok etib, fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga munosib hissa qo'shdilar. Milliy harbiy qismlar tarkibida xizmat qilgan jangchilar, razvedkachilar, sanitarlar va partizanlar Vatan ozodligi yo'lida o'z hayotlarini qurbon qilishdan qaytmadilar. Surxondaryo viloyatidan frontga jo'natilgan minglab insonlar orasida katta yo'qotishlar bo'lgan bo'lsa-da, ularning jasorati va fidokorona xizmati tarix sahifalarida abadiy muhrlangan. Urush qatnashchilarining xotirasini asrash va ularning qahramonligini yosh avlodga yetkazish bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun surxondaryolik jangchilarning Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki va tarixiy xizmati milliy tarixning ajralmas qismi sifatida chuqur o'rganilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tursunov S., Pardaev T. Sherobod mehnatkashlarining Ulug' Vatan urushi yillarida ko'rsatgan jasorati. –Termiz, 1993. – 104 b.
2. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 27-ish, 204-varaq.
3. Termiz shahridagi 213-novoukrain o'qchi diviziyasining Jangovor shon-sharaf muzeyi arxivi materiallaridan foydalanildi.
4. Tursunov S.N. Xotira barhayot –Qadr mangu. –Toshkent: Fan, 2010. –B. 189.
5. Моложавенко В. Жаркое солнце Сурхана. –Москва: Мысль, 1982. –С. 186-188.
6. Soatov O., Tursunov S., I.Umarov, K.Toshov. Frontdan kelgan xatlar. –B. 104-105.
7. Tojixonov I. Sobiq jangchi xotiralaridan // «Sherobod» gazetasi, 2005-yil 7- may.
8. “Xotira” kitobi (1–33 jildlar). Toshkent, 1999.
9. Surxondaryo viloyati davlat arxivi materiallari (1941–1945 yy.).